

O'ZBEK TILIDAGI AYRIM SO'ZLARDA OMONIMIYA HODISASI

Qodirova Dilfuza G'opirjon qizi

NamDU tayanch doktoranti

qodirovadilfuz3313@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi ayrim omonim so'zlarning semalari, etimologiyasi va omonimlarning tilda paydo bo'lish sabablari tahlil qilingan.

Tayanch so'z va iboralar: omonimiya, omoforma, omoleksema, sema, leksema, leksik birlik.

Abstract. The article analyzes the meanings, etymology of some homonymous words in the Uzbek language and the reasons for the appearance of homonyms in the language.

Key words: homonymy, omoform, omolexema, sema, lexeme, lexical unit.

Omonimiya munosabatlarini belgilashda til birliklarining ikki tomoni – ifoda va mazmun plani hisobga olinadi. Sinonimiya va antonimiyada til birliklarining mazmun plani asosga olinsa, omonimiyada ifoda plani yetakchi sanaladi. Ifoda plani deganda ikki jihat: talaffuz, aytish (tovush ifodasi) va yozilishi (harfiy ifoda) nazarda tutildi.

Omonimlarning tilda paydo bo'lish sabablari turlichadir: avvallari har xil aytilib, bir xil eshitiladigan so'zlar talaffuzining tarixiy jarayonda tovush almashinishi yoki talaffuz o'zgarishi natijasida bir-biriga mos kelib qolishi; boshqa tillardan o'zlashgan leksemalarning talaffuz va yozilish jihatdan ona tilidagi so'zlarga mos kelib qolishi; tilda mavjud bo'lgan ko'p ma'noli so'z semalarining bir-biridan uzoqlashishi va hokazo.

Omonimiyada ikki xil hodisa mavjud:

Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir (yuqorida misollar). ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. (27,128-b.). Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. Qiyos qiling: ot («ism») – otim, oting, oti; otni, otning, otga...kabi,ot («hayvon») – otim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi. Yana: bo'sh (sifat) – «ichiga hech narsa solinmagan»: bo'sh chelak kabi; bo'sh (sifat) – «tarang tortilmagan»: arqonni bo'sh tortib bog'lamoq kabi.

Bu tipdagi omonimlar (omonim omoleksemalar) turli so'z turkumlariga mansub bo'lishi ham mumkin. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan so'zlar shakllanish tizimiga ega bo'lmasliklari kerak. Masalan, tabiiy (sifat) va tabiiy (modal



so'z): 1) U tabiiy fanlarga ko'proq qiziqadi. (Bu gapda tabiiy - sifat, aniqlovchi); 2) So'zamol, badavlat qori tog'aning birdan ko'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi (Bu gapda tabiiy – modal so'z, kirish so'z).

Omoformalar ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi. Masalan, sur (ot: «qorako'l teri navi») va sur (sifat: «och kulrang») leksemalari ayni shu shaklda lug'atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi sur leksemasi turlanganda (surni, surning, surga... kabi) sur (ot) va sur (sifat) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qoladi. Demak, bu ikki leksema o'rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi sur so'zi bosh kelishik shaklida bo'lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo'qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemadan farq qiladi.

O't (ot:"olov") va o't (fe'lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi shakli) munosabatida boshqacharoq holat kuzatiladi: o't fe'l shakli lug'atga o'tmoq shaklida kiritiladi, binobarin, o't (ot) va o'tmoq (fe'l) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qligi ma'lum bo'ladi, shunga qaramay fe'lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi o't shakli bilan otning bosh kelishigidagi o't shakli omoforma omoleksemalar sanaladi. Bu leksemalardagi omoforma munosabati o'ting (sening o'ting) va o'ting (siz o'ting) kabi shakliy tenglikda ham yuzaga keladi, ammo o'tni, o'ting (otning kelishik shakllari) va o'tgin, o'tsin (fe'lning buyruq mayli shakllari) kabi holatlarda omoforma paydo bo'lmaydi. Demak, omoforma bo'lish turli so'z turkumlariga mansub leksemalarning ayrim grammatik shakllarigagina xos.

Omoformalarda negizga qo'shilayotgan affikslar ham shaklan teng bo'ladi, shunga ko'ra bunday qo'shimchalar omoaffikslar sanaladi. Qiyoq qiling: o'ting («-ing»-otning egalik kategoriyasiga mansub affiks) - o'ting («-ing»-fe'lning buyruq mayliga mansub affiks) kabi.

Tadqiqot obyekti qilib olingen manbaa tarkibida quyidagi omonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin:

— Yo'q, fikrim band etgan oqqushlar emas,
Sabo yo parivash bokishlar emas.
Na suv ko'zgusida ko'ringan hilol,
Na chehrasi ol!

Xayolim boisi boshqadir butun,
O'tmishning bu g'amli qissasi uzun.
So'rading, so'ylayin, mayli, qulqol sol,
Qalbga tugib ol!





Shoirning tuyg'ulari ajib tarzda ifodasini topgan bu she'rda ol so'zining omonimligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi ol so'zi sifat bo'lib, qizil, qirmizi rangni bildiradi. Go'zal qizlarning yuzi hamda labining rangini tasvirlashda qo'llanadi. Masalan, ol yuzli qiz ko'chamdan o'tganda hamna unga mahliyo bo'lar edi. Qadimgi turkiy tilda bu so'z äl tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik fonetik hodisalarga uchrab ol shakliga kelgan: ä:I > äl > ol. Äl so'zi qadimda inson tana a'zolaridan biri bo'lgan qo'lni anglatgan. Qadimgi bitiktoshlarda esa, al tarzida qo'llanib, xalq, el, hamma ma'nosida kelgan. Al yama al bolti, bodun yaman bodun bolti (To'nyuquq bitiktoshi).

Keyingi tugib ol fe'lidagi yetakchi bo'lgan olmoq fe'lining juda ko'p ma'nolari mavjud bo'lib, ko'p ijodkorlar asarlarida bu so'zdan turli xil ma'nolarni ifodalashda qo'llaganlar.

Olmoq I bu hammamiz uchun tanish bo'lgan, buyumni biror joydan olish ma'nosi. Yo'lchi ketmonni olib, ishiga jo'nadi. (Oybek, Tanlangan asarlar).

Olmoq II qabul qilmoq, yollamoq. U avvalgi direktorimiznini boshiga tuhmat yog'dirib, ishdan oldirdi. (X.To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati).

Olmoq III yechmoq, solmoq. Xotin boshidan jun ro'molini oldi-da, bir-ikki qoqib, yana o'radi. (M.Ismoilii, Farg'ona tong otguncha).

Olmoq IV yemoq, ichmoq, tanovul qilmoq. Bu hozir ba'zi shevalarda bor, ba'zi joylarda uchramaydi. Deyarli ko'p asarlarda bunday ma'nosini uchratamiz. Hammasi sizning tegishinggiz, hech kimga qaramang. Baliqni oling!(A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).

Olmoq V aytmoq, kuylamoq. Bu so'z ham shevalarimizda saqlanib qolgan. "Nasrulloyi", Giryol! Ibodxo'ja ol, Fig'oni ol! (Shukrullo, Saylanma).

Olmoq VI qamashtirmoq. Tong yorishib, qamish poyalari oftob yig'ida lov-lov yonayotganga o'xshab ko'zni oladi. (S.Ahmad).

Yuqorida misralar tahlilidan omonimiya juda eski hodisa ekanligidan, bir so'z bilan aytganda, omonimiya hodisasi XI-XIII asr yozma manbalar tiliga xos balki undan ham oldinroq leksemalarning shaklan o'xshashligi natijasida yuzaga kelganligini bilib olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdushukurov, Baxtiyor. "XI—XIV asr turkiy yozma manbalarda qo 'llanilgan zoonimlar." Oltin bitiglar—Golden Scripts 1.1 (2019).
2. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. –146 б.



- 
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами –Т.: Университет, 2001. –Б. 323.
 4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1984. –214 б.
 5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). –Т.: Университет, 2001. –599 б.

